



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 28-yanvar, seshanba,
11 (24.037)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ko'pdan
ayrilgan
ozar, ko'pga
qo'shilgan
o'zar

Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

SAMARQANDNI YANADA RIVOJLANTIRISHDA HAR BIRIMIZ FIDOYILIK VA FAOLLIK KO'RSATAYLIK!

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyevning viloyat aholisiga

MUROJATI

Aziz samarqandliklar!

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning e'tiborlari tufayli viloyatimiz keyingi yillarda mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutadigan hududlardan biriga aylandi. **Ilm-u irfon, madaniyat va san'at beshigining timsoli** sifatida mavqei tobora mustahkamlanib bormoqda.

Xususan, o'tgan yili **928,5 million dollar** miqdorida xorijiy investitsiya mablag'lari jalb etilib, **147 ta** loyiha ishga tushirildi. Bundan tashqari, **2024-yilda 166 ta** qo'shma korxonada tashkil etildi va ularning soni **926 taga** yetdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi **2,8 milliard dollarni** tashkil etdi va eksport hajmi **2023-yilga nisbatan 127 foizga** oshdi.

Bu ko'rsatkichlar viloyatimizning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida ham namoyon bo'lmoqda. Xususan, **2024-yilda** yalpi hududiy mahsulot **6,9 foiz** o'sgani shundan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari yaratib bergan imkoniyat va imtiyozlar tufayli viloyatimiz aholisi **kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida** ham muhim natijalarga erishib kelmoqda. Ayni paytda viloyatda mazkur sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi **73 foizdan** oshgani va mehnat bilan band aholining **87 foizdan** ziyodi shu sohada faoliyat ko'rsatayotgani fikrimizning yaqqol misolidir.

Shu bilan birga, 16 ta tuman (shahar) va **1 126 ta** mahallaning **har birini** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularni kambag'allik, ishsizlik va jinoyatdan xoli hududga aylantirish, "Obod mahalla – obod ko'cha – obod xonadon" mezonlarini joriy etish kabi muhim sohalarda hurmatli Prezidentimiz belgilab bergan vazifalar viloyatimizning yaqin istiqboldagi rivojlanish strategiyasini o'zida mujassam etadi.

Darhaqiqat, tarixi bir necha ming yilliklarga borib taqaladigan, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat rivojlangan, buyuk allomalar yetishib chiqqan azim va ko'hna zaminimiz jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan hamda bugungi kunda ham **tarixiy davr bilan bugungi Uchinchi Renessans davri o'rtasida munosib ko'priklarni** vazifasini bajarib kelmoqda.

Bu esa "Yer yuzining sayqali", "Sharq gavhari", "Sharq va G'arb tamaddunini bog'lab turuvchi markaz" deb e'tirof etilgan viloyatimiz aholisi uchun ham sharaflar, ham mas'uliyat hisoblangan.

Shu nuqtai-nazardan, hurmatli Prezidentimiz belgilab bergan sohalar va yo'nalishtirish bo'yicha "Yer yuzining sayqali" bo'lgan viloyatimizni har tomonlama rivojlantirishda nafaqat mas'ul rahbarlar, balki barcha samarqandliklar bir yoqadan bosh chiqarib, fidoyilik va faollik ko'rsatishi insoniy burchimizdir. **Qadri vatandoshlar!**

Raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, viloyatda rasman **40,9 ming** nafar fuqaro ishsiz deb qayd etilgan bo'lsa, joriy yilda yana **82,1 ming** bitiruvchilar mehnat bozoriga kirib keladi.

2025-yil boshida hududimizdagi **324 ming** nafar aholining daromadi past bo'lib, kambag'allik darajasi **7,7 foizni** tashkil etgan.

Xususan, **2024-yil** boshida **98 mingdan ziyod** kambag'al oila ro'yxatga olingan bo'lib, shu davrga qadar amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida **23 mingga yaqin** oilani kambag'allik darajasidan chiqarishga erishildi.

Bu borada "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida qolgan **75 mingdan ortiq** ehtiyojmand oilalarni ham kambag'allikdan chiqarish viloyatimizni kambag'allikdan xoli hududga aylantirishga xizmat qilishi barchamizga ma'lum.

Buning uchun **kambag'al oilalarga birkirtilgan rahbarlar** mutasaddi tashkilotlar, "mahalla yettilliklari", bank tizimi xodimlari, tadbirkor va fermerlar bilan birgalikda har bir oilaning ehtiyoji va daromadlarini oshirish imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda, manzilli rejalar asosida qonunchilikda belgilangan xizmatlar majmuining o'z vaqtida va to'liq ko'rsatilishini tashkil etishlari ularni kambag'allikdan chiqarishga xizmat qiladi.

Bu esa "Samarqand tajribasi" bo'ladi, albatta. Binobarin, aholi bandligini ta'minlash, kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etish, shuningdek, **jonajon Vatanimizning rivojiga hissa qo'shaman, degan har bir yurtdoshimizning oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.**

Negaki, kishi qachon barqaror ish faoliyati bilan shug'ullansa, oilasi farovon bo'lsa, shundagina uning o'ziga nisbatan ishonchi ortadi, davlatimizning taraqqiyotiga umid bilan qaraydi, jamiyatimizda kechayotgan jarayonlarga, islohotlarga daxldorlik hissini tuyadi.

Qolaversa, bandligi ortidan kelgan daromadiga oilasini boqadi, turmushi farovon bo'ladi, orzu-havaslariga erishadi.

Bu borada viloyatda **320 mingta** yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha **tasdiqlangan rejalarning ijrosini ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega.**

Shu bilan birga, viloyatimizdagi **1 126 ta** mahallaning drayveridan kelib chiqib, shakllantirilgan **45 mingdan ziyod loyihalarni** ishga tushirish, "Turizm mahallalari" va "Turizm qishloqlari-

ni" ko'paytirish, eksportni hozirgi **716 milliondan 850 million dollarga** oshirish **ustuvor vazifamizdir.**

O'ylaymizki, hurmatli Prezidentimiz tashabbuslari asosida aholi daromadlarini oshirish bo'yicha yaratilgan "Sayxunobod, Uychi, Zarbdor, G'ijduvon tajribalari"ni joriy etishda **bandlik va bank tizimi xodimlari, har bir mahallaning "yettiligi", tadbirkorlar, agroklastlar rahbarlari va fermerlar jonbozlik ko'rsatadilar.**

Hurmatli mahalla faollari, ko'pni ko'rgan nuroniylar, deputatlar va jamoatchilik vakillari!

O'tgan yili viloyatimizda doimiy yashash manzillaridan **261 mingdan ziyod** yurtdoshimiz uzoq muddatga xorijiy davlatlarga ketgan bo'lib, sizlarning sektorlar rahbarlari, prokuratura va ichki ishlar idoralari xodimlari hamda kasaba uyushmalari bilan yaqin hamkorlikda olib borgan keng ko'lamli targ'ibot ishlaringiz natijasida ularning **129 mingga yaqini o'z oilalari bag'riga qaytib keldi.**

Shu bilan birga, sektor rahbarlari, **1 126 ta** mahalla "yettiligi" tomonidan mutasaddilar bilan birgalikda xorijdan qaytib kelgan **7 mingga yaqin** vatandoshlarimizning bandligini ta'minlash, tashqi migratsiyada yurgan **174 mingdan ortiq** mahalladoshlarimiz bilan doimiy tarzda muloqotlar o'tkazib borish va bunda kam daromadlilarni qaytarish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Qolaversa, xalqimizning "Bolaning begonasi bo'lmaydi!", "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona" kabi purma'no maqollari va da'vatlarni amaliy harakatga aylantirishimiz kerak.

Ayni paytda aziz dildanlarimizning kamoloti, ularning yaxshi o'qib, oilasiga va xalqimizga nafi tegadigan kasb-hunarlarining egasi bo'lib voyaga yetishlari **har bir ota-ona, mahalla va butun jamiyatimiz uchun oliy maqsadlardan biri ekanligini yaxshi tushunamiz.**

Bu borada farzandlarimizni o'quvchilik davridayoq mustaqil ravishda o'z qiziqqan kasb-hunarining haqiqiy egasi bo'lishini ta'minlashga ko'maklashish har birimizning insoniy burchimizdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, dasturlar va "Yo'l xaritalari" ijrosini ta'minlash, davlat idoralari faoliyati, mutasaddilar tomonidan aholi muammolarining o'z vaqtida hal etilishi ustidan **samarali deputatlik va jamoatchilik nazoratini o'rnatish** dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bunda deputatlik va jamoatchilik nazoratining ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish "Inson qadri uchun" tamoyilini amalga qaratish bilan bir qatorda, joylarda **qonun buzilishi holatlari va boshqa salbiy illatlarning oldini olishga, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga** xizmat qiladi.

Barchamizga ma'lumki, **har qanday jinoyat, zo'ravonlik – bu adolatning buzilishi, haqiqatning sinishiga olib keladi.** Joriy yilning o'tgan davri maboyatida viloyatimizdagi **1 126 ta** mahallaning **756 tasida** jinoyat sodir etilganligi, **156 tasida** esa jinoyat oshganligi barchamizni chuqur tashvishga solishi, tabiiy.

Jinoyatchilikning **asl ildizi** ko'p hollarda bekorchilikdan kelib chiqadi.

Agar barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsak hamda "Mening mahallam, mening ko'cham tinch va toza, jinoyatchilikdan xoli mahalla, ko'cha!", "Men mahallamga befarq emasman!" degan ezgu g'oyalarni amalga tatbiq qilsak, viloyatimizni jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirishga erishamiz.

Aziz samarqandliklar!

Barchamizni jonajon Vatanimizning, mahallamizning gullab-yashnashiga hissa qo'shishni majburiyat emas, **avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan qadriyat sifatida qabul qilishga chaqiramiz!**

Qolaversa, yurtimizda ulkan yangilanishlar va bunyodkorliklar shiddatli kechayotgan ushbu damlarda **har birimiz o'z xonadonimizni, mahallamizni obod qilishimiz** nafaqat qut-baraka, balki farzandlarimiz va nevaralarimizning dunyoqarashi, ma'naviyati va ma'rifatiga ijobiy ta'sir qilishini unutmaylik!

Har birimiz "Yer yuzining sayqali" deya nom qozongan hududda yashayotganligimizning mas'uliyatini chuqur his qilgan holda viloyatimizni "Obod Samarqand"ga aylantirishni, uning "Sharq gavhari" ekanligini namoyon qilishni **ezgu maqsad sifatida amalga namoyon etaylik!**

Shundagina ko'zlangan **buyuk maqsadga – Yangi O'zbekistonimiz, Samarqandimizning yanada gullab-yashnashiga erishamiz.**

Bejizga buyuk bobokalonimiz Amir Temur o'zining o'g'itlarida "Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va masharvat bilan bajo keltirilur", deb ta'kidlagan.

Yuqorida ta'kidlangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashda barchamiz birlashishimiz, "bir tan-u bir jon bo'lib" harakat qilishimiz va har birimiz munosib hissa qo'shishimizni taqozo etadi.

Har doim yodda tuting, Sizning birgina ijobiy harakatingiz – bu oilangiz, mahallangiz va butun viloyatimiz aholisining farovonligi uchun xizmat qiladi.



Murojaatning elektron nusxasi bilan ushbu QR-kod orqali tanishishingiz mumkin.



O'SISH SUR'ATLARI SAQLANADI

BUNING UCHUN HAR BIR TIZIM VA TARMOQ JIDDIY ISHLASHI KERAK

27-yanvar kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi sessiyasi o'tkazildi.

Sessiyani Kengash raisi Sh.Negmatov boshqardi. Dastlab viloyatni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish, "Obod xonadon – obod ko'cha – obod mahalla" mezonlarini joriy etishda sektor rahbarlari tomonidan "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida sektor rahbarlarining hisoboti eshitildi.

O'tgan yil viloyatimizda yalpi hududiy mahsulot hajmi 99,9 trillion so'mdan oshdi va o'tgan yilga nisbatan 6,9 foizga o'sdi, - dedi 1-sektor rahbari, viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev. - Bunda, sanoat mahsulotlari hajmi 46,2 trillion so'm, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 57,5 trillion so'm, xizmatlar hajmi 58,9 trillion so'm, qurilish-pudrat ishlari hajmi esa 14 trillion so'mga yetkazildi. 350,4 ming aholining bandligi ta'minlandi. Buning natijasida ishsizlik darajasi 6,6 foizdan 5,4 foizga kamaytirildi.

Mahalliy budget daromadlari rejadagi 4 977,3 milliard so'm o'rniga 5 312,6 milliard so'mga ortig'i bilan bajarildi.

Umumiy qiymati 1246,8 million dollarlik 1463 ta investitsiya loyihasi ishga tushirildi. Loyihalar doirasida 928,5 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi.

Eksport prognozi yil yakuni bilan 716 million dollarga yetib, eksport geografiasida 63 davlatga yetdi.

106 ta'lim muassasasida qurilish, ta'mirlash va jihozlash ishlari olib borildi. Natijada 27 ming nafar o'quvchi uchun shart-sharoit yaratildi.

Viloyat turizm salohiyatini rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish maqsadida 11 ta mehmonxonada, 39 ta xostel, 74 ta oilaviy mehmon uyi hamda 3 ta davolanish va 3 ta dam olish maskani faoliyatini tashkil etildi.

2025-yilda ham yuqori o'sish sur'atlarini saqlagan holda, yalpi ichki mahsulot hajmini 112,8 trillion so'mga, aholi jon boshiga esa 25,9 million so'mga yetkazishni maqsad qilganmiz.

45 mingta mikroloyiha amalga oshirilib, 90,1 mingta yangi ish o'rnini yaratildi. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi hayotga tatbiq etilib, asosiy e'tibor aholini daromadli mehnatga jalb qilish, kasb-hunar o'rganish, kafolatlangan davlat tibbiy va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishga qaratiladi.

Joriy yilda umumiy qiymati 8,5 milliard dollarlik xorijiy investitsiya asosidagi loyihalarni amalga oshirishni rejalashtiryapmiz.

Aholiga munosib turmush sharoitlari yaratish, ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirish maqsadida 11 500 xonadonli 184 ta ko'p qavatli uy-joy barpo etish, urbanizatsiya darajasini hozirgi

36,6 foizdan 37,2 foizga yetkazishni rejalashtirganmiz. 25 ta suv inshooti qurildi, 38 ta suv inshooti ta'mirlanadi, 206,2 kilometr ichimlik suv tarmog'i tortilib, markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti 80,5 foizga yetkazildi.

6400 ta yaroqziz simyog'ochlar beton ustunlarga, 1,5 ming kilometr elektr havu tarmoqlari SIP kabellarga almashtirildi.

Maktablarda 19,5 mingta qo'shimcha o'quvchi o'rni yaratiladi, nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni 48 taga yetkazildi.

Viloyatning 14 mahallasida "Turizm qishloq"larini tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar boshlanadi.

Sport infratuzilmasi rivojlanmagan 24 ta mahallada sport maydonchalari barpo etiladi, 3 ta sport zal va 4 ta sport inshooti yangidan quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Sessiyada, shuningdek, 2-sektor rahbari, viloyat prokurori M.Eshnazarov, 3-sektor rahbari, viloyat IIB boshlig'i R.Mamatov, 4-sektor rahbari, viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i E.Tolliyevning hisoboti va joriy yilga mo'ljallangan rejalar tinglandi.

Shundan so'ng deputatlar "2025-yilda Samarqand viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi"ni tasdiqladilar.

Dasturda viloyatdagi yalpi hududiy mahsulot hajmini 6,3 foizga oshirish, ishsizlik darajasini 4,8 foizga va kambag'allik darajasini 5,4 foizga pasaytirish nazarda tutilgan.

Sessiyada 2025-yilda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha o'rnatilgan soliq stavkalariga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar, soliq to'lovchilar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalar (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlarini va mol-mulknii ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning ijara to'lovi eng kam stavkalarining oshiruvchi koeffitsiyentlarini tasdiqlash to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 29-noyabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishini nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi to'g'risidagi va Kengash vakolatiga doir boshqa masalalar ko'rib chiqilib, qarorlar qabul qilindi.

Kattaqo'rg'ondagi markazlashgan issiqlik tizimi:

INSHOOT QURILISHI nega cho'zilmoqda?



Kattaqo'rg'on shahrida qurilayotgan issiqlik ta'minoti tizimi sohadan xabardor barcha uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan inshoot. Birinchidan, uzoq yillardan so'ng ilk bor viloyat markazidan tashqarida (asldi markazlarda ham tashlab qo'yilgan) bunday tizim qurilmoqda. Bu issiqlik ta'minotida, garchi qimmat bo'lsa-da, loyihalar boshlangani o'laroq yoqimli xabar.

sigra barham beriladi. Aholi bilan suhbatda bildikki, ular ham loyiha boshlanganini yaxshi kayfiyatda kutib olgan. Ammo loyihadan xabardor bo'lmaganlar ham bor.

- Bu biz uchun uzoq kutilgan qurilish, - deydi mahalla raisi Qahramon Aminov. - Issiqlik tizimi, birinchidan, umuman xavfsiz, chaqnash ehtimoli, is gazidan zaharlanish xavfi yo'q, nisbatan arzon va doimiy issiqlik kerak emas? Shuning uchun ushbu qurilish boshlangani albatta yaxshi. Hozir tarmoqlar qurilishi bir necha ko'p qavatli uylarga yetib borgan. Xonadonlarni ulash ham boshlangan. Faqat ayrim xonadon egalari turli sabablar, masalan, "uyimning ta'miriga zarar yetadi" degan vajlar bilan tarmoq tortishni xushlamayapti. Ammo bunday fikrdagilar sanoqli, o'ylaymanki, tushuntirish ishlari bilan tez orada bunday gaplarga hojat qolmaydi.

Darhaqiqat, suratda ko'rib turganingizdek, ko'p qavatli uylarga tarmoq tortish ishlari davom etmoqda. Qozonxonona joyi ham tayyor, tez orada o'rnatilishi aytilmoqda. Afsuski, loyiha yakuni baribir mart oyigacha cho'zilib mumkin. Xullas, aholi bu hududda keyingi yil qishdagina ishonchli va muntazam issiqlikdan bahramand bo'ladi. Buning sabablariga qiziqdik.

Tabiiyki, inshoot hali qurib bitkazilmaganligi va hokimlikka topshirilmaganligi sababli shahar hokimligi mutasaddilari bu borada

aniq fikr bildira olmadi. Obyekt hali qurib olinmagan. Shu sababli buyurtmachi — viloyat hokimligi huzuridagi "Ko'p qavatli uylarni ta'mirlash bo'yicha injiniring kompaniyasi" davlat muassasasi vakili bilan bog'landik. Avvalgi chiqishimizda ushbu obyekt qurilishi uchun tender 2024-yil 1-noyabrda o'tkazilishini aytgandik.

Xususan, tender g'olibiga obyekt 50 kun ichida qurib bitkazish majburiyatini yuklash ko'zda tutilgan. Injiniring kompaniyasidan ma'lum qilishlaricha, 1-noyabr kuni faqat bitta pudrat tashkiloti qatnashganligi sababli tenderda qurilish pudrat tashkiloti aniqlanmagan. 4-noyabrda o'tkazilgan tanlovda «KOMUNAL QURILISH BB» MChJ Kattaqo'rg'on shahar Amir Temur ko'chasida joylashgan ko'p kvartirali uylarni issiqlik ta'minoti tizimini ta'mirlash obyektini bo'yicha o'lib deb topilgan va 25-noyabrda pudrat shartnomasi tuzilgan. G'azna hisob raqamida qurilish pudrat ishlari uchun to'lov yopiqligi sababli loyiha 5-dekabrda kelib moliyalashtirilgan.

Hozir obyektida barcha issiqlik quvurlari olib kelingan va qurilish ishlari olib borilmoqda. 1900 metr tarmoq tortilgan, qozonxonalar olib kelingan. Qozonxonona ishlari (biz borgan vaqtda) 50 foizga bajarilgan.

Buyurtmachi, mutaxassislar va aholi bilan suhbatda bildikki, loyiha kechikishining yana bir jid-

diy sababi — hududda yer ostida kommunikatsiya tarmoqlarining haddan tashqari ko'p ekani. Muhandislik, kommunikatsiya tarmoqlariga zarar yetkazmaslik uchun qazish va tarmoq tortish ko'pincha qo'l mehnati bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa ishlarni ma'lum muddatga ortga surishi aytilmoqda.

Shunday qilib, uzoq kutilgan, joylarda yana markazlashgan issiqlik tizimini qayta tiklashga qaratilgan



das-tlabki loyiha ana shu tarzda davom etmoqda. Katta ehtimol bilan qurilish ishlarining to'liq yakuni mart oyiga to'g'ri keladi. Nima bo'lganda ham boshqa muammolar chiqib, qurilish to'xtab qolmasligidan umidvormiz va bu kabi loyihalar boshqa hududlarda ham davom ettirilishi lozim deb bilamiz.

Anvar MUSTAFOVULOV,
Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Kambag'allikdan farovonlik sari



O'tgan yili Past Darg'om tumanida 11 ming 535 ta kambag'al oila ro'yxati shakllantirilgan. Ularning 11 ming 11 tasi ijtimoiy himoya reestriga kiritilgan. Mahalla yettilligi tomonidan xatlov o'tkazilishi natijasida bu oilalarning 1711 tasi o'ziga to'q, 3762 tasi hayoti farovonlashayotgan, 3077 tasi daromadi barqaror bo'lgan, 2461 tasi haqiqiy nochor oila ekanligi aniqlandi.



"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi asosida "Kambag'al oilalar uchun yetti imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili asosida ish olib borilib, imtiyozli kredit ajratish orqali 682 ta, subsidiya asosida asbob-uskunalar berish orqali 263 ta, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish orqali 211 ta, doimiy ish o'rinlariga joylashtirish orqali 1075 ta, "Sayxunobod" va "Uychi" tajribalari asosida 427 ta oilaga amaliy yordamlar ko'rsatilishi natijasida 2658 ta oilaning kambag'allikdan chiqarilishi ta'minlandi.

O'tgan yilning sentabr oyidan 541 ta kambag'al oilaga 88 nafar rahbar va 18 tadbirkor birlashtirildi. Ular mahalla yettilligi bilan hamkorlikda oilalarning yashash sharoitlarini o'rganib chiqib, kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual reja tuzildi. Ayni paytda ularga turli xil ko'maklar ko'rsatilyapti. Jumladan, 89 nafar kishi doimiy ishga joylashtirildi, 43 fuqaroga tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun subsidiya va kredit mablag'lari ajratildi.

Masalan, Yangiobod mahallasida yashovchi Zamira Do'stmurodovaga subsidiya asosida 2 sotixlik issiqxonona qurib berildi, - deydi tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i Tohir Qosimov. - U ayni paytda ko'katlar yetishtirib, bozorga chiqaryapti. Fevral oyida bodring ekishni rejalashtirgan. Kambag'al oilaning birgina issiqxonona bilan sharoiti yaxshilanib qolmaydi. Shuning uchun mas'ullar o'ziga birlashtirilgan har bir oila ahvolidan 6 oy davomida xabardor bo'lib turadi, kezi kelganda ko'maklashadi. Agar shu muddat ichida kambag'al

oilaning ahvoli yaxshilanmasa, ro'yatdan chiqarilmaydi.

- Yolg'iz onaman, ikki nafar farzandim bor, - deydi Zamira Do'stmurodova. - Oilaviy sharoitim og'ir edi. Mahalladan beriladigan bir martalik moddiy yordam yoki bolalarimga olinadigan nafaqa pullari bilan birim ikki bo'lmayotgandi. Ishlay desam, tayinli ish topolmayman. Yordam beradigan odam yo'q. Farzandlarimni onamga tashlab, o'zim chet davlatga ishga ket-sammikan, degan xayol bilan yurgan paytimda mahalladagi hokim yordamchisi subsidiya asosida issiqxonona qurib, berilishini aytdi. Xursand bo'ldim. Bu ishni eplay olishimga ko'zim yetardi. Tavakkal qilib ish boshladim. Avvalo, issiqxonona ko'kat ekdim. Hosilni ketma-ket bozorga chiqara boshladim. Daromadi yomonmas. Issiqxononaning bir chekkasiga sinov tariqasida qulupnay ham ekanman. Hozir uni parvarishlash sirlarini o'rganyapman. Mening harakatimni ko'rgan mas'ullar homiylik ko'magi bilan bolali sigir ham olib berishdi. Bir tarafdin sut-qatig'i foyda bo'lsa, ikkinchi tomondan, buzog'i katta bo'lyapti.

Shuningdek, tumanda kambag'al oilalarning farzandlariga ham alohida yordamlar ko'rsatilyapti. Masalan, ular qiziqishiga qarab, qo'shimcha to'garaklarga jalb etilyapti.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida tumanda amalga oshirilayotgan ishlar joriy yilda ham davom ettirilib, 3181 ta oila kambag'allikdan chiqarilishi rejalashtirilgan.

To'liq SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV
(surat).



Orzu qilishga imkon bering

Yoxud ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar taqdiri nima bo'lyapti?

Durdona bolaligidan nogironlik asoratlari bilan kurashib yashaydi. Ota-onasi uni olib bormagan shifoxona, ko'rsatmagan shifokori qolmagan. Taqdir shunday ekan. Ulg'ayavergach kasalligi ham zo'rayib, yurolmay qoldi. Hozir aravacha va kuzatuvchisiz ko'chaga chiqishi qiyin. Ammo taslim bo'lgani yo'q. Hamma qatori orzu-umid va maqsadlari bor. Ularni ro'yobga chiqarishi uchun esa ozgina e'tibor va ko'mak kerak.

Ma'lumotga ko'ra, shu kunlarda viloyatimizda 11882 nafar bola ijtimoiy himoyaga olingan. Bundan tashqari, 20 ming nafardan ortiq yoshlarda turli darajadagi nogironlik mavjud. Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi hamda hududiy "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan ularni ijtimoiy himoya qilish, reabilitatsiyasini ta'minlab, jamiyatga integratsiyalash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Biz jarayonni Jomboy tumani misolida o'rganishga harakat qildik.

Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi bolalarni ijtimoiy himoya qilish shu bosi bosh mutaxassis Xurshid Vafoyevga ko'ra, ayni kunda markazning asosiy e'tibori og'ir

vaziyatda qolgan bolalarni aniqlash va ijtimoiy reabilitatsiyaga yo'naltirishga qaratilgan. O'rganishlar davomida aksar holda uyida qarovsiz qoldiriladigan yoki ota-onasi xorijga ketib, bolaga va'siy tayinlanmay qolgan holatlar ko'p uchrayotgan ekan.

- Ta'lim muassasalaridan o'quvchining xulqi va o'zlashtirishi yomonlashganligi xususida ma'lumot tushgach, oilaviy holatni o'rganish uchun uyiga boramiz, - deydi Xurshid Vafoyev. - Ko'pincha bolalarning ota-onasi xorijga ketgan bo'lib chiqaypti. Bolalar esa qarindoshlari, ba'zan tanishlar ixtiyorida qoldirilgan. Tabiiyki, ularning tarbiyasi ikkinchi darajali ishga aylangan. Oqibati esa o'zingizga ayon. Biz ularga

qonuniy vasiy tayinlanishini ta'minlayapmiz. Bugungacha 383 nafarga yaqin bolaga vasiy tayinlandi. Shundan 114 nafariga homiylik belgilandi. Javobgarlik bo'lsa, bolaning taqdiriga befarqlik kamayadi.

Prezidentning 2024-yil 14-noyabrda gi "Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan joriy yilning 1-yanvaridan boshlab mehribonlik uylari va bolalar uylariga kam ta'minlangan oilalarning farzandlarini vaqtinchalik qabul qilish tartibi bekor qilindi. Bunda hokim yordamchisi va ijtimoiy xodim tomonidan shunday oilalarni "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida kambag'allikdan chiqar-

- Tumanimizda 4219 nafarga yaqin nogironligi bor fuqarolar istiqomat qiladi, - deydi markazning nogironligi bo'lgan shaxsilar bilan ishlash shu bosi mudiri Sanjar Abdusattorov. - Shundan 795 nafarga yaqini yoshlar. O'tgan yili ularning 650 nafariga ortopediya va reabilitatsiya vositalari berildi. 516 nafar bola reabilitatsiya markazlariga yo'naltirildi. Ijtimoiy xodimlar har bir bolaning salomatligi va ijtimoiylashuvini nazorat qilib, zarur yordamni ko'rsatib kelmoqda.

Durdona Alisher Navoiy nomli mahallada istiqomat qiladi. Yaqinda u yana tibbiy ko'rikdan o'tib, zarur muolajalarni oldi. Hozir orzusi - shifokor bo'lish uchun oliy

dim ham nogiron bo'lib tug'ilgach oilaviy sharoitimiz og'irlashtirdi. Dori-darmonning o'zi katta pul bo'ladi. Ijtimoiy himoya tizimi ishga tushgach davlatdan ko'mak olib boshladik. Aravachani buyurtma berganimizdan keyin bir oyga qolmay olib kelishdi. Hozir ikkinchi farzandim ham o'qishga astoydil kirishgan, IT bo'yicha o'quv kursiga qatnashaypti, dasturchi bo'lmoqchi.

Tumanda 71 nafar bola uy ta'limi asosida o'qimoqda. 24 nafar nogironligi bor bola maktablarda zarur sharoitlar yaratilishi hisobiga tengdoshlari safida ta'lim olmoqda. Jarayonda yana bir muhim masala - imkoniyati cheklangan yoshlarni parasportga jalb qilish orqali reabilitatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungacha 51 nafar shunday fuqarolar sportga jalb qilingan bo'lib, ularning 31 nafarini yoshlar tashkil etadi.

To'g'ri, hozir tumanda adaptiv sport turlarini rivojlantirish uchun barcha sharoitlar bor deb bo'lmaydi. Nogironligi bor fuqaroning o'lsidagi sport maktabiga qatnashi ham oson emas. Shu bois Prezident tomonidan 2024-yil 8-noyabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror jarayondagi muammolarga yechim bo'lishi kutilmoqda. Qarorda har bir tuman va hatto mahallada jismoniy reabilitatsiya uchun sharoit yaratish, parasport bilan shug'ullanuvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ularning ijrosi ta'minlansa, Jomboydan ham paraolimpiya g'oliblari chiqishi aniq. Eng muhimi, bu nogironligi bor fuqarolarning salomatligini yaxshilash, hayotga bo'lgan qiziqishi, ishtiyogini oshirishga xizmat qiladi.

Asqar BAROTOV,
"Zarafshon" muxbiri.



ish bo'yicha choralar ko'rilishi belgilangan. Shuningdek, yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, zo'rvonlikdan jabr ko'rganligi sababli oilasidan olingan bolalar ham ijtimoiy himoya tizimiga birlashtirildi. Jomboyda o'tgan yilda 3 nafar yetim bolaga uy-joy berilgan. 5 nafari oliy ta'limga yo'naltirilib, o'qishi uchun zarur sharoit yaratilgan.

o'quv yurtiga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rmog'da.

- Qizimning ahvoli 8-sinfligida yomonlashdi, - deydi uning onasi. - Shunga qaramay bilim olishga ishtiyoqi baland edi. Ancha vaqt maktabga ko'tarib olib-borib keldim. Keyin o'qishini uy ta'limi asosida davom ettirdi. Unga vaqtda elektron aravacha olib berolmadik. Ikkinchi farzand-

XORIJDA O'QISH

oson emas, ammo...

Xorijda tahsil olayotgan talaba qiz bilan tanishib qoldim. U chet eldagi hayoti haqida gapirib berdi. Talaba qiz ism-sharifini oshkora qilishimni istamagani uchun uning ismini yozmadim.

- Avvaliga men uydagilarimga xorijda o'qiyman deb oyoq tirab oldim, - dedi qiz. - Ular menga chet elda qiynalishimni aytsa, "bo'lmagan gap", dedim. Dastlab 2+2 dasturi asosidagi oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirdim va ikki yil vatanda o'qidim. Qolgan ikki yilini Janubiy Koreya davlatida davom ettirishim kerak edi. Shunday bo'ldi ham. Xorijda o'qishim uchun to'lanishi kerak bo'lgan uch oylik to'lov-shartnoma pulini ota-onam bankdan kredit olib to'ladi. Ularning uch oylik shartnoma puli bizning pulimizga anchagina bo'ladi. Qolganini o'zim xorijda ham o'qib, ham ishlab topishim kerak edi.

Janubiy Koreyaga borgach, ikki yil birga o'qigan dugonam bilan arzonroq ijara uy topib joylashdik. Vaqtini qo'ldan boy bermasdan ish topishga kirishdik. Bir yoqda o'qishim ham boshlanib qoldi. Tushgacha o'qisak, tushlikdan keyin ishlashimiz lozim edi. Aks holda chet eldagi yashash va o'qish xarajatlari uydagilarimiz pul topib berolmasdi.

Shunday kunlarning birida bir manzilga borish uchun yo'lga chiqdim. Ammo hali shahar ko'chalarini va sportini yaxshi bilmasdim. Bir mahalliy kishidan shu manzilga qanday borsam bo'ladi, deb so'radim. U menga qaysi raqamli avtobusga o'tirishim va nechta bekatdan so'ng tushishim kerakligini tushuntirdi. Bunga ham qanoat qilmay, bekatda men bilan avtobus kutib turdi. Avtobus kelgach, haligi koreys millatli odam haydovchiga manzilimni aytib, meni o'sha bekatga tushirib ketishni tayinladi. Koreys xalqining oliyanobligidan quvonib ketdim. Bizda bo'lsa, deyarli hech kim bunday iltifot qilmaydi. Nari borsa, manzilni tushuntirib, yo'lida davom etadi.

Uyga kelsam, dugonam internetdagi e'lonlardan bir ish topibdi. "Sen gaplash", dedi menga. O'zi hali koreys tilida ravon gapirolmadi. Men e'lon egasiga telefon qildim, uning taklifi bilan dugonam ikkimiz ish beruvchi bilan tanishib, ishini qachondan boshlashimiz kerakligini gaplashib keldik. Xullas, ish beruvchi oshxonaga egasi bo'lib, biz darsdan keyin oshxonadagi yumushlarni bajarishimiz kerak edi.

- Karta raqamlarimizni ish beruvchiga berishimiz kerak ekan. U ishimizga qarab maosh berishini aytdi, - dedim dugonamga xonaga kelgach.

- Ikkimizning ish haqimizni mening kartamga tashlasa bo'lmaydimi? Axir ishni men topdim-ku, - dedi dugonam jahl bilan.

- Tushunmadim, ishini sen topganing bilan, uni men gaplashdim. Qolaversa, har kimning ishiga qarab pul beriladi. Sening kartangga tushgan pulni

qanchasi seniki, qanchasi meniki ekanini qayerdan bilasan? - dedim.

Dugonamga bu gaplarim yoqmadi, ikkimiz urishib qoldik. Ikki yil birga o'qib, uning bunday xarakteri borligini bilmagan ekanman. O'sha kunioyq dugonamdan ko'nglim qolib, boshqa ijara uyga chiqib ketdim.

Musofirlikda vatandoshlar bir-birini qo'llaydi, deb o'ylardim. Afsuski, buning aksi bo'lib chiqdi. Bir kuni o'qish joyim mendan bir ma'lumotnoma so'radi. Ma'lumotnomani elchixonadan olishim kerak edi. Elchixonaga telefon qilsam: "Biz sizga ma'lumotnoma bera olmaymiz", dedi elchixonada xodimi.

Shundan so'ng ish beruvchimga elchixonadan ma'lumotnoma olishimga yordam so'radim. U men bilan elchixonaga bordi. Elchixonaga vakili koreys millatli ish beruvchimga talabdan so'ng, tezda menga ma'lumotnoma chiqarib berdi.

- Nega shuni kecha men so'raganda bermadigiz? - dedim unga.

- U boshqa kishi bo'lsa kerak, men siz bilan hozir gaplashyapman, - dedi uyalmay. Indamay chiqib ketdim.

Chet elda ham o'qib, ham ishlash boshida qiynidek edi. Doir o'rganib ketdim. Bu yerda har bir daqiqamdan samarali foydalanaman. Darsdan keyin ishga, ishdan ijara uyimga qaytib, dars tayyorlayman. Xonadosh dugonalarim ham men kabi xorijdan kelib o'qiyotgan malayziyalik, indoneziyalik qizlar. Ular bilan birgalikda ahil yashayman. Shartnoma pullarimni ham o'zim ishlab to'layapman. Ammo musofirchilik chiday olmay, vatanga qaytib ketgan talabalar ham bo'ldi. Afsuski, ularning ko'pchiligi o'g'il bolalar.

Janubiy Koreyada talaba darsga kelmasa, dars tayyorlamasa, o'sha fandan imtihondan o'tolmaydi. Bu albatta, o'ziga zarur. O'qituvchilar darslarini o'tib ketaveradi, bizdagidek "Nega darsga kelmading, nega dars tayyorlamading", deb so'ramaydi. O'zini va talabani asabini buzmaydi. Shuningdek, talabalarining kiyinish masalasi ham muhokama etilmaydi. Har kim o'zi istagan kiyimda darsga boraveradi.

Bir yildan ziyod vaqt ota-onamdan uzoqda yashadim. Yaxshiyam internet bor ekan, deyarli har kuni uydagilar bilan gaplashib turdim. Ta'til bahona yaqinda uyga keldim. Ota-onam endi magistraturani shu yerda o'qiyman, deyishyapti. Men esa tezroq xorijga ketgim kelyapti, sababi u yerdagi hayotga, kishilarning turmush tarziga o'rganib qolibman.

Musofirchilik odamni tarbiyalay ekan. Chet tilini bilganlar, dunyo kezib yurganlar keng fikrlashiga amin bo'ldim.

Xurshida ERNAZAROVA yozib oldi.



O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab 90-yillarigacha bir muddat odamlar ne'matlar ichida eng aziz bo'lgan nonni ko'p xor qilishdi. Esmida, o'sha paytlar ko'pchilik do'kondan "buxonka" sotib olib, so'qim boqar edi. Maktabda partalarining tagida non qoldiqlari yotardi.

Allah biz bandalariga bergan har bir ne'matni qadrlamasak, tezda boshimizga sinov berar ekan. Oqibatda kun kelib, nonni xor qilganlarni gunohi uchun, qolganlarni esa loqaydligi uchun jazoladi. Non qariyb tilloga tenglashdi. Pul bor odamlar ham do'kondan non topolmay qoldi. Do'konlarda kishi boshiga bir oyga uch kilodan un sotilar edi. Xalq juda qiynaldi. Albatta, endi mustaqil bo'lgan davlat oyoqqa turguncha ancha og'ir bo'ldi. Ikki mingginchi yillardan boshlab qornimiz to'yib non yeydigan bo'ldik.

Hozir esa Yaratganga shukur,



Ne'matning shukrini qilmasak

kun kelib unga zoriqib qolamiz

shaharda ham, chekka qishloqlarda ham do'konlarda uning hamma navidan bor. Istagancha non va non mahsulotlarini olishimiz mumkin. Ammo...

Yaqin yillardan beri odamlar yana nonni isrof qila boshladi. To'y-ma'rakalardagi isrofgar-chilik kishi dilini xira qiladi. Bir to'g'ram nonning qadr-qim-matini boshidan o'tkazgan biz keksalar nasihat qilsak, afsuski,

quloqlariga olmaydi. Bir ne'matni xor qilsang, kun kelib, unga zor bo'lasan, degan hikmatni unutib qo'yayapti ko'pchilik. Allah rizqimizni keng qilganda uning bergan ne'matlarini qadrlamasak, shukronasini qilmasak, vaqtida isrofgar-chilikning oldini olmasak, yana qaytib qiynchiliklarga duch kelmaymizmi? **Ne'mat ASQAROV, Past Darg'om tumani.**

Gender tenglik - biologik tenglashtirish emas

Har bir inson jinsi, yoshi yoki ijtimoiy mavqeidan qati nazar, teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Bu jamiyatdagi diskriminatsiyani kamaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, gender tenglik taminlangan jamiyatda ayollar ham, erkaklar ham o'z salohiyatlarini to'la namoyon etish imkoniga ega bo'lib, iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarning mehnat faoliyatida faol ishtirok etishi mamlakat iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Gender tenglikni taminlash orqali ayollar va qizlarning ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa jamiyatda sog'lom va bilimli avlodni tarbiyalashga turtki beradi. Misol uchun shifoxonada faqat erkaklar ishlaydi, ayollar ham bo'ladi.

Gender tengsizlik bir qator muammolarni keltirib chiqaradi va ularning ko'pi ayollarimiz bilan bog'liq bo'ladi. Ayollarning ta'lim va ish bilan taminlanishi cheklovli paydo bo'ladi. Ota-onalar qizlarini o'qitmaydi, 18 yoshga to'lar-to'lmas turmushga beradi.

Biz gender tenglikni ta'minloqchi bo'lsak, avvalo, noto'g'ri tushunchalardan qutulishimiz kerak. Afsuski, bunday noto'g'ri tushunchalarning ko'pi erkaklarga tegishli. Ko'plab erkaklar gender tenglik faqat ayollarni qo'llab-quvvatlash yoki ayollarga yordam berish, ularga ustuvorlik berishga qaratilgan degan fikrga borishadi. Aslida esa gender tenglik -



bu ayollar va erkaklarning huquq va imkoniyatlarini tenglashtirishni ko'zda tutadi. Bu ikki jinsning ham cheklovlardan xoli bo'lishini taminlaydi. Masalan, erkaklarning ruhiy salomatligi, oiladagi mas'uliyatlari va ota bo'lishdagi huquqlarini himoya qilish ham gender tenglikning bir qismidir.

Eng ommalashgan noto'g'ri tushuncha gender tenglik erkaklarning huquqlarini cheklaydi, degan fikrdi. Gender tenglik erkaklarning emas, balki mavjud gender stereotiplarining cheklanishini ta'minlaydi. Bu stereotiplar erkaklarga ham ta'sir qiladi. Masalan, "erkaklar yig'lamaydi" yoki "erkaklar faqat oilani moddiy ta'minlashi kerak" degan qarashlar ham xato, aslida. Gender tenglik erkaklar va ayollarni teng hurmat qilishni taqozo etadi.

Yoshi kattalardan tashqari, ayrim yoshlar ham gender tenglik tabiiy rollarni ham yo'q qiladi deb o'ylashi ayollarga nisbatan hurmatsizlikdan boshqa narsa emas. Agar to'g'ri yondashsangiz, gender tenglik biologik farqlarni inkor etmaydi, balki ijtimoiy cheklovlarni bartaraf etishni maqsad qiladi.

Aziza MUHIDDINOVA, SamDChTI talabasi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand viloyat adliya boshqarmasidan 2007-yil 30-yanvarda 162 raqam bilan ro'yxatga olingan Samarqand viloyat "SHARQ DURDONASI" tarixiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy markazi (qisqartirilgan nomi: SV "SHARQ DURDONASI") TMM va HM) ixtiyoriy ravishda tugatilmogda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

Markazning pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand shahri, Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 55-"A" uy.

Markazning soliq to'laydigan identifikatsiya raqami (STIR): 206848739.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilshira Hasanovna notarial idorasida marhum Gafurov Azizga (1992-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilshira Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Ibragimov Amindjan Muxtarovichga (2014-yil 22-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod

Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Marufov Raximga (1978-yil 1-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarida marhum Daniyurova Manzura Narziyevnaga (2024-yil 23-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Xudoyarov Ibragim Gulyamovichga (2020-yil 17-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Usanov Klichbay Islamovichga (2023-yil 26-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Eshonqulov Ne'matga (2003-yil 12-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Eshonkulova Barna Yunusovnaga (2023-yil 10-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Kodirov Komiljon Mavlonoichga (2019-yil 13-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Ibragimov Isroilga (2020-yil 21-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Axmedova Xavva Nurgaliyevnaga (2014-yil 13-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

BEKOR QILINADI

Fuqarolar Madadanova Xalima Kari-movna va Mamadaliyeva Oliyga Xuse-novnalari o'rtasida 2021-yil 28-iyunda Samarqand shahri "Terakzor" MFY, Gulzor (avvalgi Iztovota) ko'chasi, 27-uy-joyning 46/100 qismi uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna tomonidan tasdiqlanib, 202101714003105 raqam bilan reestrda qayd qilingan turar joy oldi-sotdi shart-nomasining sotib oluvchidagi asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Bakayev Komil Karimovich nomiga 2023-yil 8-avgustda berilgan AF 1298998 raqamli haydovchilik guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushurib qoldirilgan. Ushbu haydovchilik guvohnomasini topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99897-915-80-08.

Fuqaro Mukumov Aziz Akramovich nomiga 2019-yil 7-sentabrda berilgan AF 1030982 raqamli haydovchilik guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushurib qoldirilgan. Ushbu haydovchilik guvohnomasini topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99891-546-69-03.



BU SHUNDAY HUR VATAN, NURLAR TOSHADI

Ismat KO'CHIYEV – taniqli ijodkor, publitsist. 1955-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston va Belarus Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Ismat Ko'chiyev o'zbek va rus tillarida baravar ijod qiladi. Shu paytga qadar ijodkorning «Sharaf Rashidov – pobeditel» («Sharof Rashdov – g'olib»), «Sharaf Rashidov – sozidatel» («Sharof Rashidov – bunyodkor»), «Jannat rayonlari», «Ulug'lar chorbog'i», «Babur. Skvoz veka» («Bobur. Asrlar oralab»), «Bolalik chorbog'i», «Talabaliq yillarim», «Triumf Geydara Aliyeva» («Haydar Aliyevning g'alabasi»), «Abadiyatning besh dovoni» nomli asarlari chop etilgan. Ismat Ko'chiyev bugun 70 yoshni qarshilayapti. Quyida uning ijod namunalardan bahramand bo'lasiz.



Qanchalar baxtliman, qanchalar shodmon,
Yam-yashil bog'laring ko'rganda, yurtim!

TINGLASHNI O'RGAN

Qismatdan nolima, u erur zargar,
Undandir neki bor aylarsan safar.
Dengizga aylamoq orzu bo'lsa gar,
Avval o'z qalbingni tinglashni o'rgan.

To'lamoqchi bo'lsang ishq xirojini,
Boshingga qo'ndirib Majnun tojini.
Lablaringga bosib nay og'ochini,
Avval o'z qalbingni tinglashni o'rgan.

Goho baland ketding, goho ketding past,
O'ylading – osmonni ko'taraman dast.
Oyoqlar ostida bo'lib xor-u xas,
Avval o'z qalbingni tinglashni o'rgan.

Hayot nafasiga oshiqlik bekor,
Pastkashlar qoshida bo'lmagin beor,
To'ki bo'lmas ekan senda ixtiyor,
Avval o'z qalbingni tinglashni o'rgan.

Ismat, tiriklikdan viqor izladim,
Do'stlarning ichidan, ag'yor izladim,
O'z-o'zimga kuyib yana bo'zladim,
Avval o'z qalbingni tinglashni o'rgan.

BOYCHECHAK

Qor ko'rpsin yorib shiddatkor,
Qish g'azabin qilib toru mor.
Tushlaringga kirdimi bahor,
Sog'-omon keldingmi, boychechak?

Aylanadi charxi kajraftor,
Kim baxtga yor, kim boylikka yor,

Kimlar esa nochoru abgor,
Barini bildingmi, boychechak?

Yangi umid-nazar beray deb,
O'tganlardan xabar beray deb,
Elga rizqdan shakar beray deb,
Shamolday yeldingmi, boychechak?

Bolaligim senda mujassam,
Seni ko'rsam tarqalar g'ussam,
Erkalayman kipriklarim nam,
Sog'-omon keldingmi, boychechak?

Dala-dashtga bergancha ovoz,
Chiqqin deya, bahorga peshvoz,
Ismat dili naylab sarafroz,
Sog'-omon keldingmi, boychechak?

YURTIM

Hatto qirlaridan tushib qizg'aldoq,
Har kelgan mehmonga yozar poyondoz.
Daraxtlar beliga oq belbog' taqib,
Mehr-u muhabbat-la chiqadi peshvoz.

Qushlar guruh berar o'tgan-ketgandan,
Har bitta anhorin suhbatlari jonon.
Dengizday chayqalgan bug'doyzorlardan
Hamisha xabardor, egilib osmon.

Qirmizi olmalar atir purkaydi,
Yam-yashil bog'larning egni-boshiga.
Bir ajib rohatni tuyasan jonda,
Boshing qo'yib yotsang tog'lar toshiga.

Bu shunday hur Vatan, nurlar toshadi,
Jilmaysa qo'ng'irtus qaroqlariga.
Azbaroyi qattiq sevganligingdan,
Aylangin keladi tuproqlariga.

NASTARINLAR GULLAGANDA

Ishq sochilar jumla-jahonga,
Gulday inar umid ham jonga,

Bir kuy oqar shafaq tomondan,
Nastarinlar gullagan tongda.

Bolarilar xirgoyisi shod,
Qushlar tuzar yangicha bayot,
Xushxabarday tuyilar hayot,
Nastarinlar gullagan tongda.

Yodga tushar yoshlik damlarim,
Hatto g'am ham bo'lganday nadim,
"Dugoh"nimi kuylar allakim,
Nastarinlar gullagan tongda.

Yasharganday bu olam dilbar,
Tovlanadi shudringlar – gavhar,
O, bunchalar osmon munaavvar,
Nastarinlar gullagan tongda.

Cho'miladi borliq ziyoga,
Ismat, ne bor bundan ziyoda,
Qaytib kelgandayman dunyoga,
Nastarinlar gullagan tongda.

UYG'OTIB QO'YAYMI?!

Orzuga cho'milgan bir oydin tongda,
Uyg'onib ketaman g'afiat uyqudan
Va toshgum bahorda daryoday –
Jism-u jonim aro tushgan yog'dudan.

Uyg'onish farahli, uyg'onish go'zal,
Ufq dil qoniday yonganda yal-yal.
Qayta tug'ilasan, go'yoki nurdan,
Osmon ko'zlaringga to'lgani mahal.

Yorishib ketadi jon-u jahoning,
Eng shaffof orzudan go'zal orzudan.
Go'yoki borliqni ilohiy farrosh,
Supurib ketganday g'amdan, qayg'udan.

Uyg'ondim va topdim ko'nglimni yana,
O'zimni o'zimdagi ayday deb bunyod.
Poklik neligini anglamoq bo'lsang,
Seni ham uyg'otib qo'yaymi, hayot?!

YURGA QAYTISH

Xayollar suraman, xayolim dilbar,
Ko'ksimdan bir o'pib o'tadi shamol.
"Xayrli kech", – deydi mayin shivirlab,
Ko'zlarimga botib boryotgan hilol.

Ko'cha chiroqlari quyoshga mengzar,
Ruhim bahor bo'lib kuylaydi bu dam.
Tillo topib olgan qulday xursandman,
Go'yoki begona menga anduh, g'am.

Shodligim toshmoqda telba daryoday,
Ko'nglimda yulduzlar qurar anjuman.
Boshim aylana hayot atridan,
Go'yo ro'paramda bir quchoq chaman.

Ketarman, parvozim osmonga yaqin,
Hamroh tole bilan suhbatlar qurdim.

1937-yil 7-sentabr kuni Xorazm viloyat NKVDsi boshlig'i Kalmikov quyidagi mazmundagi telegrammani oldi:

Telegramma

1937-y. 7-oktabr, Toshkent shahri.
Shavot tumani militsiyasi tezkor vakili Usmonov Istat-ni hibsga oling. Uni maxsus qo'riqchilar bilan Toshkent qamoqxonasiga yuboring. Prokuror Reyxrunder tomondan sanksiya berilgan.

O'ZSSR NKVD ishchi-dehqon militsiya boshqarmasi boshlig'i Romanov.

1937-yilning 9-oktabr kuni NKVDning Xorazm okrug militsiyasi boshlig'i Ostanov Romanovga telegramma orqali topshiriq bajarilganini ma'lum qiladi. Shu tariqa 1908-yilda Samarqandda tug'ilgan va 1927-yildan buyon militsiya safida xizmat qilayotgan Istat Usmonov uni hibsga olish haqidagi orderda yozilganidek, "1936-yilda Toshkentdagi 3-militsiya maktabi kursanti paytida aksilinqilobiy "Milliy Ittihad" tashkilotining faol a'zolari Ro'zi Yusupov, Narziqul Ibrohimov va boshqalar bilan yaqin aloqa o'rnatib, kursantlar orasida millatchilik yo'nalishida targ'ibot olib borgan", degan ayb bilan javobgarlikka tortilgan edi.

Shundan keyin NKVD xodimlari odatiy usulni qo'llab, uning "aksilinqilobiy" faoliyatini fosh etuvchi hujjatlarni to'plashga kirishdilar. Birinchilar qatori bunday ma'lumotlarni ilgari Istat Usmonov ishlagan Samarqand shahar 3-militsiya bo'limi boshlig'i taqdim etdi. Ushbu ma'lumotnomadan ayrim ko'chirmalar:

"Samarqand shahar, So'zangaron qismidagi 1-Yo'mini gazarida Pavranga ismli bosmachilikda shubhalanilgan shaxs yashardi. Uni 1934-yilda 4-bo'lim tezkor vakili Qayumov qo'lga olgan va Usmonovga tergov olib borishni topshirgan. Usmonov esa Pavranga bilan birodar bo'lib qolib, uni butunlay ozod qilib yuborgan".

"Qo'shtamg'ali qishloq kengashidagi kokozlardan biridan chorva mollari o'g'irlangan. Unda shubhalanib ushlangan kishilarga nisbatan ham Usmonov chora ko'rmagan".

Lekin ana shu hujjatlar tagida boshqa izoh ham mavjud edi. Unda aytilishicha, bosmachilikda ayblangan Parvanga ismli shaxs 1934-yilda Toshkentda sud qilinib, otib tashlangan. Kokoz chorvasini o'g'irlashda gumon qilinganlar ham sudga tortilib, biri o'limga, qolganlari turli muddatga qamoq jazosiga hukm etilgan. Lekin tekshirish olib borayotgan NKVD xodimlarini asosan Istat Usmonov faoliyatidagi salbiy jihatlarni topish qiziqtiradi. Oqibatda bunday kichik harflar bilan yozilgan izohlarga e'tibor qilinmadi. Uning na Samarqandda, na Shavotda ishlagan davrda o'g'irlar, qarochilar va boshqa shu kabi shaxs-lar bilan kurashdagi biror-bir ijobiy ishi tilga olinmadi. U haqda NKVD to'plagan ma'lumotlar va hujjatlar bilan tanishgan kishida Istat Usmonov militsiyaga ishga kirgan 1927-yildan buyon faqat buzg'unchilik va boshqa salbiy ishlar bilan shug'ullangan ekan, degan fikr o'yg'onishi muqarrar edi. NKVDga faqat shu kerak bo'lgan.

Agar shunday bo'lsa, nega 19 yoshda militsiyaga oddiy xodim bo'lib o'tgan yigit xizmat pillapoyalari bilan ko'tarilib, Samarqandda o'z sohasi bo'yicha yaxshigina nufuzga ega bo'lgan. Oxir-oqibat uni Toshkentdagi militsiya rahbar xodimlarini tayyorlash ikki yillik kurslariga o'qishga yuborishgan.

Istat Usmonov militsiya maktabi kursantlariga o'zining noo'rin mulohazalari bilan salbiy ta'sir ko'rsatganlikda ham ayblangan edi. Buning sababi, u o'qish va xizmat tashvishlari bilan band paytida xotini qattiq kasal bo'lib qoldi. Uy-joyi yo'qligi, turli xonadonlarga ko'chib yurish muolajaga muhtoj ayolining ahvolini yanada og'irlashtirdi. U maktab rahbariyatiga ham ruhiy, ham iqtisodiy qiyin ahvolga tushib qolganini aytib, ayolini davolashda yordam so'raydi. Lekin kerakli



ko'makni ololmaydi. Oqibatda xotini vafot etadi. Shundan keyin maktabning ayrim kursantlari va xodimlari oldida militsiya rahbariyati haqida salbiy fikrlarni bildirdi. Bular militsiya maktabi boshliqlari tomonidan albat-ta, hisobga olingan va uning nomi "qora ro'yxatga" bitib qo'yilgandi. Bu gap-so'zlar NKVDning ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi rahbari, kapitan Romanovning ham qulog'iga yetib borgan.

Usmonov bilan bir paytda militsiya maktabi tinglovchisi Eshonxo'jayevning sudda bergan ko'rsatmasidan: "Menga shu narsa ma'lumki, ishchi-dehqon militsiyasi boshqarmasi boshlig'i kapitan Romanov militsiya maktabi kursantlariga kimlar salbiy ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash va bundaylarning yetakchisi deb bilgan Istat Usmonov ortidan alohida nazorat o'rnatish haqida topshiriq bergan edi".

Mana nima uchun ishchi-dehqon militsiyasi boshqarmasida ishlagan R.Yusupov va militsiya maktabi o'qituvchisi hamda tarjimoni N.Ibrohimov "Milliy Ittihad" tashkilotiga mansublikda ayblanib, qamoqqa olinishi bilananoq kapitan Romanov Xorazmga telegramma yo'llab, I.Usmonovni ham hibsga olishga buyruq beradi. Chunki ular samarqandlik hamyurtlar sifatida bir-ikkini uchrashganidan xabardor edi-da. Uning uchun Istat Usmonovni aksilinqilobiy faoliyatda ayblash va sudning qora kursisiga o'tkazishning eng maqbul yo'li topilgandi.

Unga "Milliy Ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lgani, o'qish davomida aksilinqilobiy-millatchilik faoliyatini olib borganligi, shuningdek, "Milliy istiqlol" tashkilotiga a'zoliq ham ayb qilib qo'yilgan edi. Bularni hech bo'lmaganda qisman isbotlash uchun NKVD o'z qo'lidagi barcha imkoniyatlarni ishga soldi. Avvalo, uning o'sha paytda aksilinqilobiy-millatchilik faoliyatida ayblanib hibsga olingan Ro'zi Yusupov va boshqalar bilan yaqin aloqada bo'lganligiga oid dalillar izlandi. Shu maqsadda R.Yusupov va u bilan uchrashgan, birga ishlagan qator kishilar ham javobgarlikka tortilib, birin-ketin tergov qilina boshlandi. Ularning tergov jarayonlarida bergan javoblari bilan tanishar ekanmiz, Ro'zi Yusupov va Narziqul Ibrohimov shaxsi nega xavfsizlik organlari e'tiborini bunchalik tortganligini anglab yetganday bo'lamiz.

Istat Usmonov (1937-yil oktabrda hibsga olingan):
- Men hech kim bilan sovetlarga qarshi fikr bildirib

gaplashmaganman. Ro'zi Yusupovning xonadonida Ibrohimov bilan birga bo'lganman. U yerda palov tayyorlangan ekan. Tushlikdan so'ng men bu xonadondan tezda ketdim. Chunki ishim bor edi. Keyinchalik men Ibrohimovdan Yusupov kimligini so'radim. Shunda u Yusupovning Samarqanddan ekanligini va o'z vaqtida yuqori amallarda ishlaganligini aytdi. Yusupovning uyida necha marta bo'lganligimni eslolmayman. Bazan unikida buyumlarimni qoldirib ketar edim.

To'lagan Mirazizov: – 1931-yildan ishchi-dehqon militsiyasi boshqarmasiga qarashli 3-militsiya maktabida tarjimon bo'lib ishlagan chog'imda Ibrohimov bilan sovetlarga qarshi mavzularda suhbatlashmaganman. Militsiya maktabi rahbariyati mening o'qishni davom ettirishimga va shu bilan bir paytda o'qituvchilik ham qilishimga ruxsat bermadi. Iqtisodiy ahvolim og'ir edi. Bularning barchasi meni g'azabimni keltirardi. Ibrohimov bilan ana shular haqida gaplashganman.

Qahhor Azizov: - Men Ibrohimovni yaxshi bilmayman. U bilan uch marta uchrashganman va bir gal mehmonda bo'lganman. Birinchi marta uni 1930-yilda Samarqandda uchratganman. 1936-yilda Toshkentda men ikki nafar samarqandlik hamshaharimni uchratdim. Ular meni tushlikka taklif qilishdi. Biz birgalikda Narziqul Ibrohimovnikiga keldik. U yerda Yusupov va yana bir necha kishi bor ekan. Tayyorlangan oshni yeb bo'lgandan keyin men uyga ketdim. Yusupov va Ibrohimovning aksilinqilobiy faoliyati haqida hech narsa bilmayman. Men hech qanday aksilinqilobiy-millatchilik tashkiloti safida bo'lmaganman va sovet hokimiyatiga qarshi suhbatlarda ishtirok etmaganman.

Kamkor Umarov: – 1933-yildan ishchi-dehqon militsiyasi safida xizmat qilganman. Hibsga olinguncha Samarqanddagi 4-militsiya bo'limi boshlig'ining yordamchisi bo'lib ishlaganman. R.Yusupov, N.Ibrohimov haqida shuni aytishim mumkin, men ularning aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi ekanligini umuman bilmaganman.

Ota Yoqubov: – 1931-yildan ishchi-dehqon militsiyasi safida xizmat qilganman. Ayblanayotgan Ibrohimovni, shuningdek, Istat Usmonovni ham 1935-yil oxirlaridan bilaman. Yusupovni men ko'rganim ham yo'q va tanimayman ham. Hech qachon aksilinqilobiy tashkilot a'zosi bo'lgan emasman. Millatchilik ruhidagi

Oydinlarimiz



suhbatlarda qatnashmaganman...

Istat Usmonovni jinoyi javobgarlikka tortishdan asosiy maqsad – yuqorida nomlari keltirilgan Ro'zi Yusupov va Narziqul Ibrohimovning "Milliy Ittihad" tashkiloti a'zosi sifatida ko'proq kishilarni uning safiga jalb etishga intilganligini ko'rsatish edi. Shu sababli ularning birga o'tirib osh yeyishi ham ana shu maqsadga yo'naltirilgan yig'ilish, deb talqin qilindi. U paytlar NKVD uchun bu hol odat tusini olgan. Masalan, bir kishi aksilinqilobiy faoliyatda ayblansa, albatta uni tanigan, birga ishlagan kishilardan bir nechtasi uning hammaslagiga aylantirilgan va o'nlab bahonalar bilan ayblanuvchining safdoshi yoki qo'llab-quvvatlovchisi tariqasida javobgarlikka tortilar edi. Istat Usmonov va yana bir necha militsiya maktabi xodimlari boshiga shunday kunlar tushgandi...

1938-yil 16-mayda O'zbekiston SSR chegara va ichki qo'shinlari harbiy tribunali uning ishini ko'rib chiqqa boshladi. Tribunal majlisida hatto bosh ayblanuvchilardan bo'lgan N.Ibrohimovning I.Usmonov haqidagi ko'rsatmalari ham inobatga olinmadi. Mana, uning aytganlari: "Usmonovni Yusupovnikidagi oshga men taklif qildim va militsiya maktabi kursanti sifatida tanishtirdim. O'zbekcha odat bo'yicha mehmonga aytilganda bir o'zi emas, birorta tanish-bilishi bilan boradi. Bundan tashqari, men Usmonovni hech qanday tashkilotga jalb etgan emasman va bu haqda o'ylaganim ham yo'q".

Lekin harbiy tribunaldagi o'tirganlarni bunday ko'rsatmalar qiziqtirmasdi. 1938-yil 17-mayda unga nisbatan ashaddiy aksilinqilobchi va millatchi sifatida o'lim jazosini tayinlash haqida hukm chiqardi. Keyinchalik uning Moskvaga yozgan shikoyati asosida SSSR Oliy sudining harbiy kollegiyasi uning bu hukmni bekor qilib, I.Usmonovga o'n yil qamoq jazosini belgiladi.

Uning jinoyi ishi hujjatlarida Toshkent hibsxonasi boshlig'ining SSSR shimolida joylashgan Kargapol lagerlar boshqarmasi boshlig'iga yozgan xati ham saqlanib qolgan. Unda I.Usmonov jazoni o'tash uchun ularning ixtiyoriga yuborilayotgani aytilgan.

...Oradan yillar o'tdi. Uning hali hayot bo'lgan 75 yoshli onasi Salomat Usmonova Stalinning o'limidan so'ng, 1937-1938-yillarda "xalq dushmani", "aksilinqilobchi" tamg'asi bilan qamalanganlarning tirik qolganlari qaytatyotganligini eshitib, 1956-yildan boshlab turli idoralarga o'g'lining qismatini aniqlashda yordam berishlarini so'rab murojaat qiladi. 1956-yil 10-aprelda Moskvaga, SSSR Bosh harbiy prokurori nomiga quyidagi xatni bitadi: "Menga 1908-yilda tug'ilgan o'g'lim Istat Usmonovning taqdiri haqida xabar berishingizni iltimos qilaman. O'g'lim 1937-yilda hibsga olingan edi. Keyin unga 10 yil qamoq jazosi berishgan. O'sha paytlar Xorazm viloyati Shavot tumani militsiyasida ishlayotgan edi. Oxirgi xatni undan 1941-yilda olgan edim. Shundan buyon xat-xabar yo'q. O'g'limning bor yoki yo'qligi haqida xabar berishingizni o'tinib so'rayman".

Shundan keyin bu xat Turkiston harbiy prokuraturasiga yuboriladi. Ularning so'rovlarini tufayli 1958-yil avgust oyida nihoyat Istat Usmonovning keyingi taqdiriga aniqlik kiritiladi. Javob xati ham I.Usmonovga tegishli hujjatlar orasida saqlanib qolgan ekan: "Sizning so'rovnomangizga javoban shuni ma'lum qilamizki, mahbus I.Usmonov 1943-yil 26-noyabrda Arxangelsk viloyati Yersevo stansiyasidagi qamoqxonada vafot etgan".

Bu mudhish javob o'sha paytlar Samarqand shahri G'allaorol ko'chasi, 1-tor ko'cha, 7-uyda yashagan onasi Salomat Usmonovning qo'lga tekkanmi-yo'qmi, bizga qorong'i...



Muzaffar MUQIMOV,
SamDU tuzilmasidagi Qatag'on
qubonlari xotirasi viloyati
muzeyi direktori.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida
2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438.
14 309 nusxada chop etildi. Buyurtma 43. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

